

**“ALPOMISH” DOSTONIDA SON VA UNING MA’NO
POETIKASI**

Po ‘lotjonova Gulbodom Oybek qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

3-bosqich talabasi

polotjonavagulbodom@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Alpomish” dostonidagi raqamlar oddiy sanash yoki miqdor-o‘lchov ma’nosini ifodalamay, qahramon taqdiri, fe’l-atvorini ko‘rsatish, uning xatti-harakatlari, kelajak hayotini ifodalovchi muhim ochqich ekani tahlillar asosida yoritib berilgan.

Abstract: This article analyzes the fact that the numbers in the epic "Alpomish" do not represent simple counting or quantitative measurements, but are an important clue that shows the fate, character of the hero, his actions, and his future life.

Kalit so‘zlar: raqam, son, o‘lchov, tilshunoslik, badiiy vazifa, poetika, xalq og‘zaki ijodi, badiiy matn.

Keywords: number, quantity, measurement, linguistics, artistic task, poetics, folk oral creativity, artistic text.

Olam ma’lum tartib asosida yaratilgan. Bu Qur’oni Karimda “Albatta, biz har narsani o‘lchov bilan yaratdik” (Qamar. 49) degan oyat bilan tasdiqlangan. Ushbu oyat tafsirida o‘lchov so‘zi qazoyi qadar hamda miqdor-o‘lchov ma’nosini bildirishi va tabiat hodisalari, inson tana a’zolari, hayvonot, nabotot – olamdagi bari mavjudlik aniq o‘lchov bilan yaratilganligi sharhlangan. Yoki “Quyosh va oy hisobdadir” (Rahmon. 5) oyatida ham quyosh va oy hajmi, harakati, joylashishi va boshqa jihatlarga ko‘ra o‘lchovli ekanligi ta’kidlangan. Agar o‘lchovlar buzilsa, yer yuzi ostin-ustun bo‘lishi mumkinligi eslatilgan. Demak, Yaratgan zot barcha narsani a’niq o‘lchov bilan bunyod etgan ekan olam shu tartib-intizomga

bo'ysunadi. Boshqacha aytganda, Allohning joriy etgan qonuni keyinchalik insoniyat tomonidan kashf etilgan sonlar bilan ifodalangan. Shu bois insoniyat tarixini ayniqsa, zamonaviy dunyoni raqamlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyatimizning bugungi taraqqiyot bosqichi undagi o'zgarishlar raqamlar asosida berilgan. Borliqdagi barcha narsa va hodisalar matematik aniqlikka bo'ysunadi degan qarash asosida ham sonlar yotadi. Qadimgi dunyo olimlari orasida raqamlar haqidagi ilmiy qarashlarning asoschisi bo'lgan Pifagorning fikriga ko'ra, raqam ham moddiy ham olamning shakli sifatida namoyon bo'lganligi uchun "Hamma narsa raqamdan iborat" degan tushuncha kelib chiqqan. U raqamni kuch-quvvat manbayi hisoblaydi va raqamlar orqali butun olam sirini bilish mumkin, degan qarashni ilgari suradi. Raqam xususiyatlarining ichiga kirib borgan sari ularning turli ma'no-mazmunini ta'riflar ekan, aynan raqam ilmi hayot kalitidir, degan xulosaga keladi. Pifagorning ushbu qarashlari ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan va raqamlar sirini, tartib-o'lchamini anglash insoniyat uchun muhim sanalgan.

Har bir xalq tafakkurida raqamlar semantikasini yuzaga chiqaruvchi, uning milliy madaniy ko'rsatkichlarini ifodalovchi turli tushunchalar uchraydi. Avvalo, son va raqam so'zi qanday ma'noni anglatadi. Buning ma'nosini bilish uchun lug'atga murojaat qilamiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da raqam va son tushunchalariga quyidagicha ta'rif berilgan: Raqam arabcha-son, miqdor; sana; nomer l. Sonni ifodalovchi grafik belgi. 2.Biror son bilan ifodalangan miqdor, korsatkich. 3.Bir turdagi predmetlarga tartib bilan qo'yilgan son; nomer. Tartib raqami.¹Bir tomonlama nazariyadan uzoqlashgan holda tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rgansak, son alohida so'z turkumi – til kategoriyasi hisoblanadi. Uning morfologik xususiyati, sintaktik jihatlari borki, tilshunoslik fani doirasida o'rganiladi. Har qanday til hodisasi matn tarkibida o'z xususiyatlarini namoyon etar ekan, son va u ifodalagan mazmunni anglash uchun badiiy matnga murojaat qilamiz.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. –

B.55

<https://scientific-jl.com/>

Tilshunoslikning bir bo'limi hisoblangan son ma'no turlarining qo'llanilishi xalq og'zaki ijodida alohida o'rin tutadi. Bu borada folklorshunos olim M.Jo'rayev o'zining "Sehrli raqamlar siri" kitobida keng ma'lumot bergan. Olimning ta'kidlashicha uch, yetti, yigirma, qirq kabi sonlar xalq tafakkuri va dunyoqarashida magik raqam sifatida aks etadi. Xalq urf-odat, marosimlari bevosita shu raqamlar bilan bog'liq talqin etiladi. M.Jo'rayev folklor asarlarida informativ-estetik vazifa bajaruvchi sehrli va an'anaviy raqamlar xususiyatlarini qayd etar ekan, o'zbek xalq ertaklaridagi "sehrli" raqamlarni ertaklar qurilishida turg'un poetik sistema sifatida qarab ularni "formulalari o'zgarmas badiiy unsur" deb aytadi. An'anaviy raqamlarni esa "mifologik ramzlar bilan emas, badiiy san'atlar, ijrochilik mahorati bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi.² Shu qarashlar asosida "Alpomish" dostonida qo'llangan raqamlar va ularning doston g'oyaviy-badiiy mazmunini ochib berishdagi ahamiyati haqida to'xtalamiz. Dostonda raqamlar quyidagi maqsadlarda qo'llangan:

- Vaqt – umr o'lchovini belgilashda;
- masofa – voqelik sodir etilgan muddatni belgilashda;
- shart – qahramon kuchini sinashda;
- homiylik – ilohiy olam bilan bog'lanish, ruhiy-ma'naviy quvvatni ifodalashda;
- voqealar rivoji va qahramonlar xarakterini yoritishda.

Dastlab "Alpomish" dostonida sonlar vaqt – umr o'lchovini belgilashda qo'llanishiga diqqat qilamiz. Dostonda shunday deyilgan "Oydan oy kundan kun o'tib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat o'tib qoldi. Boybichalarning oyi-kuni yetib qoldi".³ Bu raqamlar vaqtning o'lchash orqali umrning boshi, kutilgan voqeaning pishib yetilishi va hayot aylanishining yangi boqichga o'tishini badiiy va ramziy tarzda ifodalash uchun xizmat qilgan. Yana sharqona qarshlarga ko'ra aynan to'qqiz raqami mukammallik va to'kislik ramzi o'laroq qo'llangan. U inson organizmining rivojlanish bosqichi (homiladorlik davrini) to'liq qamrab olgani

² Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. - Toshkent: Fan, 1991. - B. 37

³ *Alpomish* / Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan. Yozib oluvchi M. Zarifov / - Toshkent: Sharq, 1998. - B. 16.

uchun ham tug'ilish va yangi hayot ramzi sanaladi. Dostonda raqamlar faqat sanoq muddatini bildirmay, taqdir, sabr-toqat va intiqlik bilan kutish kabi holatlarni ochib bergan. Boybo'ri va Boysari farzand tilab Shohimardon pining ravzasida qirq kecha va qirq kunduz tunab, tavba qilib, Ollohdan farzand tilashi xalqimiz orasida chilla degan marosimning borligini yodga soladi. Yana bir o'rinda "bolalar kundan kun o'tib, oydan oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularni tili chiqib, elga enib, engandan keyin maktab chiqib, maktabda o'qib yurib yetti yoshga kirdi. Shunda Hakimbek Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyni tortib qo'yib yubordi, yoyni o'qi yashinday bo'lib ketdi"⁴ deyiladi. Bunda bir, ikki va yetti raqamlari bosqichma-bosqich kamolot ma'nosini bildiradi. Bir- yangi boshlangan hayot, bolaning ilk qadamlari, ikki- farqlash bosqichi, bola endigina til chiqara boshaydi va dunyoni anglashga intiladi, uch-ijtimoiylashuv, bola endi jamiyat bilan munosabatga kira boshlaydi, yetti esa eng muhim raqam bo'lib, eposda mukammallik, kamolotni ifodalab kelgan. Hakimbekning yetti yoshda aqliy ham jismoniy yetilgani nazarda tutilgan va aynan shu raqam qahramonlikka eltuvchi yo'lining boshlanishini belgilagan. Bu raqamlar orqali odam bolasining o'sish yo'li ramziy shaklda: tug'ilish – anglash – harakat – jamiyatga qo'shilish – bilim olish tarzida aks ettirilgan.

"Boylar ko'chib jo'nadi ana shunda, mollari Ko'kqamish cho'lidan chiqib borib, to'qson tog'dan o'tib, yurt-u jahonni to'zon, chang qilib, boylar to'qson tog'dan mollarini o'tqazib, qalmoq yurtiga yetkazib, qalmoq yurtiga necha dovonlardan oshib yetib keldi qalmoq yurtiga, Chilbir cho'lga yetishdi"⁵. Boysari boshliq o'ng ming uyli qo'ng'iroq elining juda olislab ketganligini ifodalash uchun to'qson tog'dan oshdi iborasi qo'llangan. Bu nafaqat masofani balki, ukaning akadan qattiq arazlaganini ham bildiradi. Jahl ustida o'z yurtidan shu qadar olislab ketganini go'yo sezmay qolganligini kuchaytirish uchun hamda ohangdorlikni oshirish uchun to'qson tog' alletteratsiyasi qo'llangan. Dostonda "to'qson tog' bosib o'tildi", deyilsa-da muddat ko'rsatilmagan. Bu doston voqealari rivojida

⁴ Alpomish / Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan. Yozib oluvchi M.Zarifov / – Toshkent: Sharq, 1998. – B.37 .

⁵ Alpomish / Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan. Yozib oluvchi M.Zarifov / – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 17.

Qalmoq va Qo'ng'iro't orasidagi masofani ko'rsatish orqali berilgan. Barchinning maktubida "Oltoychilik yo'lga keldim, to'qson alpda toy-talashda qoldim, olti oyga muhlat oldim"⁶, – degan ma'lumot orqali Qalmoq – Qo'ng'iro't orasidagi masofa olti oylik ekani ayonlashadi. Olti oylik masofani alp qahramon Boychibor vositaida uch oyda bosib o'tadi. Bu esa qahramonning kuch-qudrati, jasurligi, shuningdek, otning homiy kuch o'laroq qahramonga madad berishi, uzoq manzilni yaqin etishini ifodalashga xizmat qilgan. Olimlarning fikricha, uch raqamida ramziylik mavjud. Badiiy ijodda tana, jon va ruh; tug'ilish, hayot va o'lim kabi tushunchalar ko'p hollarda uch raqami bilan beriladi. Bu go'yo uch olamni tamsil etadi: Yer osti olami (Torkiston), Yer usti olami (yashab turgan zamin) va Ko'k – samo olami. Mumtoz adabiyotimizda bu qarashlar uchlik – oshiq, ma'shuq va raqib obrazi bilan talqin etiladi. Alpomishning olti oylik masofani teng yarim muddat uch oyda bosib o'tishi favqulodda va tanlangan, zimmasida ulug' vazifalar yuklatilgan insonlarning o'z maqsadiga yetishida g'aybiy kuchlar madad berishini ifodalaydi. Bunga esa insoniyat tarixi shohid. Alpomish obrazida shunday zotlarning sifat-xususiyatlari mujassamki dostonda bu haqiqatlar raqamlar poetikasini o'rganish asosida ochiladi.

Dostonda sinov – shart holatlarining aks ettirilishida ham raqamlar alohida ramziylikka ega. Dostonda Barchinoyning to'rt shart qo'yishi va shart asosida g'olib bo'lganga turmushga chiqishi shunday keltirilgan: "To'rt shart buyurgandir unda zulfakdor: Poyga qilaman, otini o'zdirgang tegaman; kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman; yoy tortishsa yoyi sinmy qolganga tegaman; ming qadamdan tanga-pulni urgan qarag'ay merganga tegaman".⁷ Eposdagi ayni to'rt raqamining o'ziga xos ma'nosi borki bu dostonda inson kamolotining to'rt darajali sinovi, qahramonlik me'zoni va ruhiy etuklik belgisidir. Diniy manbalarda ham ushbu raqam tartib, axloqiy va ruhiy komillikka eltuvchi yo'l sifatida tasvirlanadi. Ya'ni ayni shu shartlardan muvaffaqiyatli o'tolgan qahramongina Barchinoydek dono, aqlli, go'zal qiz qalbini zabt eta oladi. Mifoloyiyada ham to'rt

⁶ Ko'rsatilgan manba. – B.32

⁷ Ko'rsatilgan manba. – B.122.

<https://scientific-jl.com/>

raqami moddiy olam sifatida qaraladi va to'rt ustun osmon tomini ushab turadi deb ishonishgan. Bu qarashlar bari to'rt raqamining ilohiy bir kuchiga dalildir va albatta, dostonidagi shartlar bilan bevosita aloqadordir. Dostonda yana bir qancha raqamlar borki, ular o'zida ilohiy ruhiy-manaviylik va ilohiy qudratni mujassam etgan. Masalan, Alpomish, Barchinoy va Qorajonning tushida qirq chiltonning ularni bir-biri bilan uchrashtirishi yoki boshqa bir o'rnida Alpomishning oti bo'lmish Boychiborning qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti borligi haqidagi ta'riflar ilohiy bir ma'noga ega. Qirq chilton olam nizomi, axloq, odob, insoniylik mezonini tutib turuvchi ma'naviy pirlardir. Ular dostonida qahramonlarni ruhiy va ma'naviy qo'llovchi ilohiy kuchlar sifatida keladi. Ularning yordamida Alpomish va Barchinoyning ruhlari uchrashadi. Demakki, qirq chilton ularni birlashtiruvchi ilohiy iroda va himmat ramzi. Musulmonlar orasida qirq raqamining mohiyati yanada yuqori bo'lib, Muhammad (s.a.v) ga qirq yoshlarida payg'ambarlik berilganligi, u kishiga ergashganlarning dastlabki qirq kishi bo'lganligi qirq raqamining mohiyatini yanada aniqroq tushunishimizga yordam beradi. Yana bir muhim jihati borki Muhammad (s.a.v) ning ismlarining boshi va o'rtasidagi "mim" harflari abjad hisobida qirqni anglatadi.⁸ To'rt yarim gaz qanot ham xuddi shu kabi falsafiylikka ega. Dostonda bu raqam o'tning oddiy ot emas, yuksak, afsonaviy, ilohiy kuchga ega, osmon va yerdan balandroq harakatlanuvchi-madadkor ramzidir. Alpomishning ruhi va kuchi shunchalik yuksakki, saralangan obraz o'laroq u oddiy emas, balki qanotli ilohiy yordamchi vositaga ega. Demak, bevosita aynan bu raqamning asarda keltirilishi ilohiy qarash dalilidir. Umuman olganda, xalq og'zaki ijodida ayniqsa dostonlarda voqealar rivojida ishtirok etgan raqamlarning alohida o'zig xos vazifasi biz tassavvur qilmagan jihatlari juda ko'pki, ularni poetik tahlil asosida ochish mumkin. Alpomish kabi qahramonlar ramzida xalq o'z orzusi- adolatli, ma'naviy barkamol jamiyatni ko'radi. Raqamlar esa bu orzuning ma'naviy qadriyatlar asosidagi ramziy shaklidir.

Xullas, "Alpomish" dostonida raqamlar qahramon taqdirini hal qilish

⁸ Jumayeva S.O'zbek mumtoz dabiyotida raqam poetikasi: Badiiy tlqin va obrazli talqin imkoniyatlari. –

Toshkent: 2025. - B.88

<https://scientific-jl.com/>

uning xatti-harakatlari kelajakdagi fe'l-atvorini ko'rsatishda qo'llanilgan. Asarda keltirilgan raqamlar oddiy sanash yoki miqdor-o'lchov ma'nosini ifodalamagan. Ular insonning hayot yo'li, ruhiy kamolotga yetaklovchi sabr, sinov yo'li va eng muhimi, inson bilan ilohiylik o'rtasidagi bog'liqlikni belgilovchi yo'ldir. Shuningdek berilgan raqamlar baxshi dunyoqarashi, epik tafakkurini ham anglashga katta yordam beradi va qahramon xarakterini yorqin tasavvur qilishimizda bizga oyna bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – B.592
2. Alpomish / Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan. Yozib oluvchi M.Zarifov / – Toshkent: Sharq, 1998. – B.393
3. Jo'rayev M.O'zbek xalq ertaklarida “sehrli” raqamlar.- Toshkent:Fan,1991.-B.37
4. ¹ Jumayeva S.O'zbek mumtoz dabiyotida raqam poetikasi:Badiiy tlqin va obrazli talqin imkoniyatlari.–Toshkent:2025.-B.242